

YURTBOSHIMIZ NIGOHIDA YOSHLAR KELAJAGI

*Andijon Davlat Pedagogika instituti
Fizika va astronomiya yo'nalishi talabasi
Madaminjonova Ruxshona Dilmurodjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtboshimizning so'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga qaratilgan tashabbusli loyihalari va so'nggi yillarda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar haqida, hamda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar— O'zbekiston, Respublika, prezident, ta'lim, tarbiya maktabgacha ta'lim, maktab, Oliy ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, Oliy Majlis, murojatnoma, xalq.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyayevning 2022- yil 20- dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojatnomasida biz, O'zbekistonning ijtimoiy davlat tamoyili asosida qurushni maqsad qilganmiz. Buni butun xalqimiz biladi, shu bois bu masalani konsititutsiyada mustahkamlash kerak. Ijtimoiy davlat eng avvalo Inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun, keng imkoniyatlar, odamlar munosib yashashi uchun zarur imkoniyatlar yaratish kambag'alikni qisqartirish demakdir. Shu bois birinchi navbatta yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'lim, ta'limni qollab quvvatlashga qaratamiz. Najot ta'limda, najot tarbiyada najot bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi. Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlarini, deputat va senatorlar, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparatli keng jamoatchiligimizning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash hamda jamiyatda o'qituvchi kasbini oshirish, sharoitlarni yaxshilash 2023- yildagi eng asosiy vazifalarimizdan bo'ladi deb ta'kidlab o'tdilar. Darhaqiqat ta'lim, tarbiya, bilim bo'lmasa Inson yuksala olmaydi. Har qanday Inson bilimli bo'la oladi. Buning uchun avvalo o'zida qiziqish, harakat bo'lishi kerak. Prezidentimiz jamiyatda o'qituvchi kasbini nufuzini oshirish sharoitlarni yaxshilash maqsadlarini qo'ydi. Qanchalik og'ir bo'lmasin o'qituvchi, muallim obro'sini, jamiyatimizda mahalladan boshlab nufuzini oshirmasak hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. – Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, ulug' zotlar. prezident aytib o'tkanlaridek bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi. – Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak, – dedi Prezident. Prezidentimiz o'qituvchi Shanini qadru qimmatini konsititutsiyada belgilash zarur deb takidlab o'tdi. Maktablarda ona tili, xorijiy tillarni o'rganish, san'at va madaniyatga qiziqtirish, va kasb hunarni o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat regulation.gov.uz portaliga qo'yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi. Farmon loyihasida ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan. Maktablarda, o'quvchilarga erkin, tanqidiy kreativ fikrash, jamoada ishlash, muloqot qilish kabi ko'nikmalarni o'rgatish kerak. Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi.

Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri. Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

– Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: “Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi.” Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4199-qarori asosida. Har bir viloyatga prezident maktablari qurildi. Bu maktablarda 130 ta mamlakatda maqullangan yangi evllev dasturi joriy qilindi, bu dastur shu kungacha o'z samarasini berib kelmoqda. Bu ta'lim dasturida o'quvchi o'zini qobilyatiga qarab aniq yo'nalishlarda chuqur o'qitiladi. Dunyodagi nufuzli universitetlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023- yilda maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturi asosida butunlay isloh qilish boshlanadi . Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish , yangi darsliklar ishlab chiqish , ilg'or ta'lim standartlari metodikalar metodologiyalarni joriy qilish uchun alohida ilmiy institutlar va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy o'zligimiz timsoli bo'lgan ma'naviyatimiz asoschisi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi .2020 yil fevral oyida Xalq ta'limi vazirligi Qoraqalpog'iston va Xorazmda tajriba-sinov tariqasida keytering usulida maktablarning boshlang'ich (1-4) sinf o'quvchilariga bepul ovqat yetkazib berilayotganini ma'lum qilingan endi. 2023 yildan boshlab barcha viloyatlarda bu usul joriy qilinadi . O'quvchilarga sifatli oziq ovqat yetkazilishiga, xalq ta'lim vaziri mas'ul va javobgar bo'ladi.2023 yildan yangi dastur joriy etiladi . Bunda har bir viloyatda bittadan texnikum va kollejlarda yevropa kaspriy ta'lim standartlari joriy etiladi. Iqtidorli yoshlarni qollab quvvatlashga alohida e'tibor beriladi. Kelgusi yillarda kimyo , elektrotexnika, transport , energetika sohasida nufuzli halqaro tashkilotlar bilan birga , alohida muhandislik maktablari tashkil qilinadi . Ta'lim va tarbiyani tubdan isloh qilish maqsadida besh yillik dastur qabul qilinadi. Prezidentimiz ayollar va qizlarga imtiyozli kreditlar ajratish to'g'risida buyruq berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son Farmoniga muvofiq:"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan farzandlariga 2021/2022 o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 585-son qaroriga asosan:Mahalliy hokimiyatlar o'zlarining hududlaridan o'qishga kirgan 100 nafar xotin-qizlar uchun mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan bazaviy to'lov-kontrakt summasini to'lab beradi;Moliyaviy barqaror davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularning kengashlari qaroriga muvofiq 50 nafargacha xotin-qizlar birinchi o'quv yili uchun bepul o'qitib beriladi.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentyabrdagi "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 605-son qaroriga asosan:Talabalar turar joyi bilan qamrab olinmagan talabalarning 60 foiziga oylik ijara to'lovining 50 foizi Davlat byudjeti hisobidan qoplab beriladi. Bunda ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida – BHMning 1 baravari (270 ming so'm) dan oshmasligi lozim. Temir daftarda turadigan , kam ta'minlanganlarga pul mablag'lari ajratildi.Ishsiz xotin-qizlarga supsidiyaga tikuv mashinalari berdi va malaka oshirish uchun o'quv kurslari tashkil etildi. Talabalarga ta'lim kriditlarini

ajratildi. Ta'lim kreditlari bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan yoki qabul qilingan, shuningdek o'qishini ko'chirgan O'zbekiston fuqarosi bo'lgan talabalarga beriladi. Unga ko'ra, kredit oluvchining doimiy daromad manbaiga ega oila a'zolari (ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, eri yoki xotini) yoki vasiylari birgalikda kredit oluvchi sifatida qatnashishi mumkin. Ta'lim kreditining asosiy qarzi talabanning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi. Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi o'zgarishlar juda katta bo'ldi. Oliy ta'limdagi Korrupsiya holatlari yuz bermasligi uchun arizalar onlayn topshiradigan bo'ldi. Tadbirkorlar uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. Mustaqilligimizning 30 yillik shodiyonasi arafasida Prezidentimizning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan o'tkazgan ochiq muloqoti katta voqelik bo'ldi, desak mubolag'a emas. Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kuzatilgan ushbu hodisada 600 ga yaqin tadbirkor, viloyat va tumanlardagi studiyalarda esa jami 10 000 ga yaqin ishbilarmonlar ishtirok etdi. Kichik va o'rta biznesning so'nggi yillardagi o'sishini tahlil qiladigan bo'lsak, bugun tadbirkorlik sub'ektlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning tayanch omiliga aylangani rost. Prezidentimiz bu boradagi ko'rsatkichga alohida to'xtalib, "keyingi besh yilda 1,5 million tadbirkor faoliyatini tashkil etdik. Avval 400 mingta edi. Ular 5 million xalqimizga ish beryapti", deya ta'kidladi. Vazirlar Mahkamasining 21 dekabrda «Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi [765-son] qarori qabul qilindi. Bu haqda Adliya vazirligi xabar berdi. Qayd etilishicha, prezidentning 2021 yil 13 iyuldagi [PF-6260-son] farmoniga asosan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan TIF Milliy bankka 100 mln dollar pul ajratilgan. Hukumat qarori bilan mazkur mablag'lardan 2022–2024 yillarda maxsus o'quv kurslarini tamomlagan va sertifikatni qo'lga kiritgan yoshlarga 540 mln so'mgacha kredit beriladi. Kredit foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasida, 3 yil imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga ajratiladi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish biz yoshlar qo'lida. Albatta biz prezidentimiz ishonchini oqlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyayevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.